

**SAID AHMAD IJODIDA INSON RUHIYATI TALQINI:
“UFQ” ROMANI MISOLIDA**

Abobakirova Xayriniso
FarDU talabasi

Kalit soʻzlar: Ufq, psixologik tahlil, ruhiyat, ichki kechinma, adabiy tanqid, xarakter, konflikt

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning “Ufq” romanidainson ruhiyati va ichki kechinmalarining badiiy tanqidi tahlil qilinadi. Asarda qahramonlarning ruhiy holati, ularni jamiyat bilan munosabati, ichki ziddiyatlari va ma’naviy izlanishlari adabiy tanqidiy nazariyasi asosida ko‘rib chiqilgan. Muallifning psixologik realizm usulidan foydalanish, xarakter yaratishdagi mahorati hamda ruhiy jarayonlarining tasvirlanishdagi tabiiylik roman badiiy qiymatining asosiy omillari sifatida baholangan.

O‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini chuqur va ta’sirchan tasvirlagan adiblar orasida Said Ahmadning o‘rni alohida. Uning asarlarida insonning ichki olami, ruhiy kechinmalari, hayotiy sinovlar oldidagi iztiroblari va ma’naviy izlanishlari o‘ziga xos badiiy ranglar bilan aks etadi. Ayniqsa, yozuvchining mashhur “Ufq” romanidagi ruhiy tahlilning keng qamrovliligi, qahramonlarning ruhiy holatini chuqur ochib berishi o‘zbek psixologik nasrining ravnaqiga katta hissa qo‘shgan. Roman insonning ichki kurashi, jamiyat bilan o‘zaro munosabati va ma’naviy barqarorlik masalalarini yorqin badiiylkda namoyon etadi.

Said Ahmad nasrining asosiy xususiyatlaridan biri inson ruhiyati, kechinmalari va hissiyotlari tasvirga katta e’tibor berilishidir. Yozuvchi voqealarni tasvirlashdan ko‘ra, qahramon ruhida o‘zgarishlarni ko‘proq tasvirlaydi. Bu jihat”Ufq” romanida ham yorqin namoyon etilgan bo‘lib, asar syujeti aynan ruhiy holatlar dinamikasi orqali rivojlanadi. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy holatlarini sodda, ammo chuqur ochadi.

Romanda konfliktlarning asosiy manbai tashqi voqelarda emas, balki qahramonlarning ichki dunyosida yuzaga keladi. Insonning o‘tmishi, jamiyatning bosimi, ma’naviy izlanishlar, adolat izlash jarayonlari qahramon ruhiyatida murakkab ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli romandagi har bir obraz ruhiy chuqurlikka ega.

Ichki monologlar orqali qahramonlar o‘z-o‘ziga savol beradi, shubhalanadi, iztirob chekadi, umid qiladi. O‘tmish xotiralari qahramonlarning bugungi qarashlariga ta’sir qiladi. Jamiyat bosimi ruhiy bosim sifatida tasvirlanadi va xarakter shakllanishiga ta’sir qiladi.

Said Ahmad qahdamonlarning ruhiy tortishuvlarini tasvirlashda realizmga tayanadi. Ruhiy iztirob voqea yoki gap orqali emas, balki tilda, ohangda, tasvirdagi mayda detallar orqali beriladi.

“Ufq” romanidagi har bir qahramon o‘ziga xos ruhiy portretga ega. Muallif ularni stereotip qahramon sifatida emas, balki murakkab, hayotiy, o‘z-o‘ziga qarama-qarshi fikrlovchi shaxslar sifatida ko‘rsatadi. Yozuvchi ruhiy jarayonlarni tasvirlashda badiiylilikni ushlab qoladi. Muallifning psixologik tahlili o‘quvchini qahramon ruhiyatiga yaqinlashtiradi va uning his-tuyg‘ularini chin dildan his etishga imkon yaratadi.

Said Ahmadning “Ufq” romani o‘zbek nasrida insin ruhiyatini chuqur tasvirlagan asarlar qatorida munosib o‘rin egallaydi. Asarda qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kurashi va ma’naviy izlanishlari realizm tamoyillari asosida yorqin aks ettirilgan. Roman o‘quvchini inson ruhiyatining murakkabligini anglashga ma’naviy qadriyatlarni qadrlashga undaydi. Said Ahmad ijodida psixologik tahlilning ustuvorligi “Ufq”ni nafaqat badiiy jihatdan, balki adabiy tanqidiy nuqtai nazardan ham ahamiyatli asarga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ahmad. Ufq. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. D. Quronov. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Q. Yo‘ldoshev. Adabiy tanqid va adabiy jarayon. – Toshkent, 2008.
4. B. Karimov. O‘zbek romanchiligida psixologik tahlil. – Toshkent, 2015.
5. A. Rasulov. Adabiy asar tahlili nazariyasi. – Toshkent, 2012.